



**MUSTAQIL FIKRLASHDAGI QIYINCHILIKLAR VA UNI BARTARAF
ETISH YO'LLARI.**

Qodirova Nilufar Abdusattor qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](https://orcid.org/0009-0004-0395-4843)

Annotatsiya: Bizning fikrimizcha, umumta'lim tizimining sifat va samaradorligini belgilovchi eng asosiy mezonlardan biri bu o'quvchini maqsadga muvofiq ravishda, ya'ni jamiyatga eng katta foyda keltiradigan darajada, uning shaxsiy va kasbiy sifatlarini e'tiborga olgan holda kasb-hunar tanlashga oid mustaqil fikrlash asosida kasbga yo'naltirishdir.

Kalit so'zlar: Mustaqil fikrlash, sezgi, idrok, tafakkur, qobiliyat, bilim, ko'nikma, malaka, kasb-hunar, tushuncha, tasavvur, qaror qa'bul qilish.

**ТРУДНОСТИ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИИ И
СПОСОБЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ.**

Кадилова Нилуфар Абдусаттор кизи

Докторант Наманганского государственного университета

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](https://orcid.org/0009-0004-0395-4843)

Аннотация: На наш взгляд, одним из важнейших критериев определения качества и эффективности системы общего образования является целенаправленная ориентация студента на профессию, то есть в той мере, в какой она приносит наибольшую пользу обществу, с учетом его личностных и профессиональных качеств, основанных на самостоятельном осмыслении выбора профессии.



Ключевые слова: Независимое мышление, интуиция, восприятие, мышление, способности, знания, навыки, квалификация, профессия, понимание, воображение, принятие решений.

DIFFICULTIES IN INDEPENDENT THINKING AND WAYS TO OVERCOME THEM

Kadirova Nilufar Abdusattor qizi

PhD student at Namangan State University

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](tel:0009-0004-0395-4843)

Abstract: In our opinion, one of the most important criteria for determining the quality and effectiveness of the general education system is the purposeful orientation of the student to a profession, that is, to the extent that it brings the greatest benefit to society, taking into account his personal and professional qualities, based on independent thinking about choosing a profession.

Keywords: Independent thinking, intuition, perception, thinking, ability, knowledge, skill, qualification, profession, understanding, imagination, decision-making.

KIRISH

Ta'lim amaliyotidagi bugungi holatga e'tibor berilsa, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish jarayoni xuddiki majburiy texnik tizim bo'lib qolgan. Qanday omillar ta'sirida bo'lmasin, uning ahamiyati yo'q, o'quvchi keyingi ta'lim bosqichiga o'tsa bo'ldi. O'z tumani yoki hududida joylashgan kasb-hunar kollejida mavjud yo'nalishlarni tanlasa, undanda yaxshi. Sinf rahbari, maktab psixologi va direktori o'z zimmasidagi majburiyatni o'z vaqtida soqit qilishga intiladi. Buning natijasida o'quvchi tomonidan maqsadga muvofiq bo'lgan erkin, mustaqil kasb tanlash jarayoni amalga oshmaydi.

Ushbu muammoning samarali yechimi umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda kasb-hunar tanlashga oid mustaqil fikrlashni shakllantirishdir. Ya'ni o'quvchining kasb tanlash jarayoni ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar va qobiliyatlar asosidagi tabiiy jarayonga aylanishi lozim. Shu ma'noda kasb-hunar tanlashga oid mustaqil

fikrlash o'quvchida kasblar to'g'risidagi bilim, tushuncha, tasavvurning mavjudligi va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati hamda uni tanlashga bo'lgan o'z iste'dod, qobiliyat, jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishiga xizmat qiladi.

O'quvchining ongli kasb tanlashi unda yetarli darajadagi umumiy tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. Kasb tanlashda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qaerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni biron kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. Zero, kasb tanlash – jiddiy va mas'uliyatli ish. O'z hayot yo'lini jiddiy sur'atda belgilab olish oson ish emas. Yoshlar o'z oldilarida haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi, o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. Shu bois umumta'lim maktabini bitirayotgan yigit va qizlar qanday kasb egasi bo'lishi to'g'risida ko'p mushohada qiladilar. Ushbu jarayon qandaydir darajada o'zida kasb-hunar tanlashga oid mustaqil fikrlash jarayonini aks ettiradi.

Mustaqil fikrlash — bu insonning o'z bilim, tajriba va tafakkur asosida, boshqalarning ta'siridan mustaqil ravishda muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va yechimlar topish jarayonidir.

Tanqidiy tafakkur nuqtai nazaridan:

Mustaqil fikrlash — bu mavjud ma'lumotlarga shubha bilan yondashish, ularni tahlil qilish, solishtirish va o'z nuqtai nazarini yaratish jarayoni bo'lib, u individual fikr erkinligi va mas'uliyatni ta'minlaydi.

Pedagogik ta'rif:

Mustaqil fikrlash — o'quvchining o'z bilimlarini mustaqil ravishda egallashi, fikrini asoslash, muammoli vaziyatlarni yechish uchun yangi g'oyalar ishlab chiqishi va qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Umumiy ta'rif:

Mustaqil fikrlash — bu ongli ravishda o'ylash, yangi bilim va fikrlarni mustaqil qabul qilish, tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga yaratuvchanlik bilan yondashish ko'nikmasi.

Mustaqil fikrlash — shaxsning o'z fikrini erkin shakllantirish, baholash va himoya qilish qobiliyati bo'lib, u mustaqil ong va bilimga asoslanadi.

Fikr arabcha tafakkur, g'oya, aql, o'ylash, mulohaza qilish kabi ma'nolarni anglatadi.

1. Biron narsa, hodisa yoki kimsa haqida o'y, xayol.
2. Biron narsaga nisbatan munosabatni, uni baholashni ifodalaydigan xukm,

xulosa. Narsa va hodisalarni taqqoslab o'rganish, mulohaza yuritish natijasi, to'xtam, qaror.

Mustaqil fikrlash qobiliyati bizning hayotimizga ta'sir qiladi. Bu biz qilayotgan, o'ylaydigan va yaratadigan hamma narsani o'zgartiradi. Mustaqil fikrlash ilmiy sohalaridan tortib muhandislik va san'atgacha – har qanday kasbdagi puxta rejalar, orzular va ixtirolarning ilgari surilishiga poydevor.

Qaror qabul qilish – maqsadga yetish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash faoliyatni boshqarishning ajralmas qismidir. Bu – muammoga yechim topish faoliyati sifatida maqbul yoki hech bo'lmaganda qoniqtiruvchi yechim topishni, yakuniy to'xtamga kelishni anglatadi.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, mustaqil fikrlash – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli va u atrof-olamni bilish quroli, inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shart. Tafakkur qilish jarayoni biron tayyor yechimi yo'q muammoli vaziyat tug'ilganda boshlanadi. Ya'ni inson biron narsani bilish ehtiyoji paydo bo'lganda fikrlay boshlaydi.

Mustaqil fikrlash – ob'ektiv voqelikning faol in'ikosi bo'lib, bilimlarning tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariyalar tarzidagi shakllanishi, harakati va rivojlanishidir. Uzluksiz ta'lim va ayniqsa muammoli ta'lim, unga xos diologik xususiyat, shakl va uslublarning tezligi mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlash jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Fikrlash nutq – til bilan chambarchas bog'langan. Insonda fikrlash va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudot. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Mustaqil qaror qilish shaxsning yosh xususiyatlariga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra bola tug'ilgan kundan boshlab ba'zi narsalarni sezish va ba'zi hislarni kechirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Lekin hali bu bolada fikr qilish bo'lmaydi; bola o'sgan sari, tajriba to'play borgan sari nutq orqali aloqa qilish imkoniyati kengayib, faoliyati o'sib borgan sari ta'lim va tarbiya jarayonida uning tafakkuri ham o'sa boradi. Mustaqil qaror qabul qilishni tashkil qiluvchi komponentlarni quyidagi rasmdan ko'rish mumkin.

Tushuncha narsalar to'g'risida ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi. Biron

narsa to'g'risida tushuncha hosil qilish, shu narsa to'g'risida bir qancha hukmlar yuritish demakdir. Tushunchani ochib beradigan hukmlar jami shu tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Biron narsa to'g'risida qancha ko'p fikr yurita olsak, tushunchaning mazmuni ham shunchalik boy bo'ladi. Narsaning shu hukmlarda ifodalangan belgilari qanchalik muhim bo'lsa, tushunchaning mazmuni ham shunchalik chuqur bo'ladi.

Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor berish zarur.

Xulosa

Psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari natijalaridan ma'lumki, o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy borliqda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni kuzatish, mohiyatini anglash hamda ularga nisbatan shaxsiy munosabatni bildirish va baho berish istagi kuchli bo'ladi. O'smirlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan farqli ravishda turmushda o'z o'rnini topishga intila boshlaydilar, ularda muayyan kasb - hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan intilish yuzaga keladi va ular muayyan mutaxassislik yo'nalishlarida kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yishga doir kelajak rejalarini tuza boshlaydilar. Ular ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish, shaxsiy imkoniyatlarini namoyish qilish, aksariyat holatlarda jasorat, mardlik namunalarini ko'rsatishga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O'zbekiston, 1997. – 214 b.
2. Jo'raev R.X.. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishining muammolari. "O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishining muammolari" ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzasi. – T.: Maktab va hayot. 2002. – 32 b.
3. Shodmonova Sh.S. Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (kasb ta'limi yo'nalishi misolida): Diss... ped. fan. dok. – T.: TDPU, 2010. – 340 b.